




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI  
VAZIRLIGI**



**RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

**2019-2020-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM  
MAKTABLARINING 7-SINF O'QUVCHILARI UCHUN BOSQICHLI  
IMTIHON O'TKAZISH BO'YICHA ONA TILI FANIDAN METODIK  
TAVSIYA VA MATERIALLAR**



**Toshkent-2020**

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 7-sinf o'quvchilari bosqichli nazorat imtihonini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiya va materiallarni tijoriy maqsadda ko'paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari metodbirlashmalari bosqichli nazorat imtihoni materiallariga 15-20% gacha o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

**Tuzuvchi:**

G.Xolmuratova - Respublika ta'lim markazi metodisti.

**Taqrizchilar:**

D.Manapova – Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 286- umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

O.Bozorova – Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 295-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

**@uzimtihon**

## ONA TILI

### 7-SINF

Ona tili ta'limining asosiy maqsadi – o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikrini ifoda etadigan, og'zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo'lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Ona tili fanidan o'quvchilarning DTSda belgilangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning elementlari qay darajada shakllanganligini hamda, savodxonlik darajasini aniqlash maqsadida, 7-sinfda ona tili fanidan bosqichli imtihon yozma ish, ya'ni diktant shaklida o'tkaziladi.

Diktant o'quvchilarning savodxonligini tekshirish bilan birga til qurilishi bo'yicha olgan bilimlarini amaliyot bilan bog'lash ko'nikmasi va yozma nutq hosil qilish malakasini tarkib toptirishga qaratiladi.

Tanlangan diktant matni quyidagi talablarga mos bo'lishi lozim:

- o'quvchilarning o'quv yili davomida o'rgangan mavzulari yuzasidan bilim va malakalarini mustahkamlashga hamda savodxonligini tekshirishga xizmat qilishi;
- diktant matnining hajmi 100-120 ta so'zdan iborat bo'lib, o'tilgan mavzularga to'la muvofiq keladigan va olingan bilimlarni sinash imkoniyatini beradigan material tanlanishi;
- tanlangan matn o'quvchiga ma'lum darslikdan olinmay, imkon qadar ijodiy bo'lishi, mustaqil o'qilgan yoki o'quvchiga notanish bo'lgan asarlardan olinib, ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi lozim.

Diktant o'qib eshittirish orqali yozdiriladi. Diktant yozilgandan so'ng matn qayta ifodali o'qib beriladi.

#### Diktant quyidagi baholash mezonlari asosida baholanadi

| T/r | Mezonlar  | Ball |
|-----|---|------|
| 1   | Husnixat bilan yozilgan, 1 ta imlo 2 ta ishoraviy xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi. (bu 1/ 2 shaklida belgilanadi)  | 5    |
| 2   | Xatolar soni turlicha bo'lishi mumkin: 2 ta imlo, 2 ta ishoraviy xato; 1 ta imlo, 3 ta ishoraviy xato; 0 imlo, 4 ta ishoraviy xato. (Bu: 2/2; 1/3; 0/4) Xatolar nisbati o'zgarishi mumkin, lekin ularning umumiy miqdori 5 tadan, imlo xatolar soni 2 tadan oshmasligi kerak. | 4    |
| 3   | 4 ta imlo, 4 ta ishoraviy xato; 3 ta imlo, 5 ta ishoraviy xato; 0 imlo, 7 ta ishoraviy xato; 4 ta imlo, 6 ta ishoraviy xato. (Bu: 4/4; 3/5; 0/7; 4/6 ) Ammo, imlo xatolar soni 4 tadan oshmasligi kerak.  | 3    |

|   |   |   |
|---|---|---|
| 4 | 7 ta imlo, 7 ta ishoraviy xato; 6 ta imlo, 8 ta ishoraviy xato;<br>5 ta imlo, 9 ta ishoraviy xato; 8 ta imlo, 6 ta ishoraviy xato. ( Bu: 7/7; 6/8; 5/9; 8/6)<br>Har qanday 7 tadan ortiq imlo xatoga qo'yiladi. | 2 |
|---|---|---|

**Izoh:** Belgilangan mezonlardan ortiqcha xatoliklar bo'lsa "1" ball qo'yiladi.

1. Diktantga baho qo'yishda belgilangan mezonda chegara bo'lishi kerak. *Masalan: "4" baho uchun imlo xatolar soni 2 tadan, "3" baho uchun imlo xatolar soni 7 tadan ortiq bo'lishi kerak.*

2. Diktant matnidagi tuzatishlar soni 3 ta yoki undan ortiq bo'lgan diktantga "5" baho qo'yilmaydi.

3. Tuzatishlarning soni 5 ta yoki undan ko'p bo'lsa diktant bahosi o'z-o'zidan 1 ballga pasaytirilib qo'yiladi. Bunday holatda masalan: "4" baho "3" bahoga tushuriladi.

Agar ishoraviy xatoliklar umuman bo'lmay, faqat 4, 5 ta imloda xato bo'lsa "3" baho qo'yiladi.

**@uzimtihon**

## **Ona tili**

### **7-sinf**

## **DIKTANT UCHUN MATNLAR**

### **Vatanparvarlik**

Har bir inson o'z tug'ilgan yurtiga bo'lgan muhabbati va sadoqatini turli shakllarda ifoda etadi. Kimdir sidqidildan mehnat qilib, vatanning moddiy boyliklarini oshiradi, uning iqtisodiy qudratini mustahkamlashga hissa qo'shadi. Yana kimdir, betakror iste'dodi va kuch-g'ayratini ona diyor ravnaqi, uning obro'-e'tiborini yuksaltirish yo'lida safarbar etadi. Yana kimdir, Vatan sarhadlarida tun-u kun sergak turib, uning har qarich yerini ko'z qorachig'idek asraydi. Bularning barchasi insonga xos bo'lmish vatanparvarlik deb ataladigan noyob va muqaddas tuyg'uning amalda namoyon bo'lishidir. Qachonki odam o'z ona yurtining dard-u tashvishi, shodlig-u quvonchi bilan hamisha hamnafas yashasa, hatto Vatan uchun jonini ham fido qila olsa, vatanparvarlik shunchaki tuyg'uga emas, yuksak insoniy fazilatga aylanadi.

Vatanni haqiqiy vatanparvar farzandlar dunyoga tanitadi. Vatan tuprog'i haqiqiy vatanparvar insonlar tufayli aziz va muqaddas bo'ladi. Vatanparvarlik Vatan tuyg'usini anglashdan boshlanadi.

**(120 ta so'z)**

### **Birinchi muallim**

Bundan yuz-yuz ellik yillar oldin yurtimiz hududida maktablar juda kam bo'lgan. Eski maktab, madrasalarda asosan diniy ilmlar berilgan. Ammo, xalqimiz ichidan chiqqan ziyolilar, bunga chek qo'yib, zamonaviy maktablar, darsliklar yaratishgan. Abdulla Avloniy ana shunday jonkuyar ziyolilardan biri edi.

Abdulla Avloniy maktablarda diniy ta'lim bilan bir vaqtda dunyoviy fanlardan ham dars o'tilishi kerak deb hisoblagan. U 1908-1909-yillarda Toshkentdagi mahallalarda ikkita yangi maktab ochadi. Shaxsan o'zi ter to'kib bolalar uchun parta, stul, doskalar yasaydi. Bu maktablarda o'quvchilarga matematika, tarix, geografiya, geometriya, adabiyot fanlaridan dars berilgan.

O'sha vaqtlarda maktablardagi eng katta muammo darsliklarning yetishmasligi edi. Shuning uchun Avloniy darsliklarni ham o'zi yozgan. Uning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" kabi kitoblari xalq orasida mashhur bo'lgan.

Avloniy boshqa ko'p sohalarda ham faol bo'lgan. Ammo, uning eng katta xizmati bolalarga ma'rifat ulashganida, birinchi muallim bo'lganida edi.

**(120 ta so'z, "Jajji akademik" jurnalidan)**

### **Vaqting ketdi — baxting ketdi**

Insonning hamma vaqti ham ish, o‘qish bilan band bo‘lavermaydi. Aytaylik, ota-onaga qarashish, darsda bo‘lish, darsga tayyorlanish, maktab yoki boshqa muassasalarda, jamoat ishlarida qatnashish bilan bir qatorda orada bo‘sh vaqt ham bo‘ladi. Ana shu bo‘sh vaqtdan unumli, maqsadli foydalana bilish, uni bekorga ketkazmaslik ham oqilona ishlardandir. Ammo, ayrim bolalar bo‘sh vaqtlaridan to‘g‘ri foydalanmaydilar. Eng noyob boylik — bo‘sh vaqtini behudaga o‘tkazib, bir-birlari bilan gaplashib o‘tirish, arzimagan mayda-chuyda narsalar ustida bahslashish, ko‘cha-ko‘yda bekor yurish bilan kun o‘tkazuvchi bolalarni ko‘rib afsuslanasan, kishi. Jismoniy va aqliy yetuk inson bo‘lib yetishuvida bo‘sh vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, undan oqilona foydalana bilish muhimdir. Dono xalqimizning: “Vaqtning qadriga yet”, “Vaqting ketdi — baxting ketdi”,- deyishi xuddi ana shu bo‘sh vaqtni qadrlay olish, undan unumli foydalanishni ko‘zda tutib aytilgan.

**( 117 ta so‘z, Malik Murodov “Oltin sandiq ochildi” to‘plamidan)**